

ZAMONAVIY TA'LIMDA JADIDCHILIK HARAKATINI O'QITISHNING AHAMIYATI

Beginqulov Zarif Axmadovch

O'zbekiston davlat sport akademiyasi huzuridagi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Email: zarifbeginqulov77@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida shakllangan yangi, ya'ni jadidchilik harakatining ilmiy ma'rifiy asosli, kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo'lgan g'oyalari, yoshlar ma'naviy dunyosini yuksaltirishda ta'lim muassasalarida jadidchilikni o'qitilishining dolzarbligi, jadidchilik harakatini o'qitishning zamonaviy ta'limdagi ahamiyati kabi masalalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadid, harakat, ma'rifatparvarlar, immunitet, strategiya, globallashuv, o'zlik.

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются идеи нового движения — джадидизма, сформировавшегося в Туркестанском крае в конце XIX — начале XX веков, отличающегося научно-просветительской направленностью, а также обладающего ярко выраженным социальным, политическим и практическим содержанием. Особое внимание уделяется актуальности преподавания джадидизма в образовательных учреждениях как важного фактора повышения духовного уровня молодёжи, а также значению изучения джадидского движения в условиях современной системы образования.

Ключевые слова: джадид, движение, просветители, иммунитет, стратегия, глобализация, идентичность.

THE SIGNIFICANCE OF TEACHING THE JADID MOVEMENT IN MODERN EDUCATION

Abstract. This article examines the ideas of the Jadid movement, which emerged in the Turkestan region in the late nineteenth and early twentieth centuries and was characterized by a strong scientific and educational foundation as well as a pronounced social, political, and practical essence. Particular attention is paid to the relevance of teaching Jadidism in educational institutions as an important means of enhancing the spiritual development of youth, as well as to the significance of studying the Jadid movement within the context of modern education.

Keywords: Jadid, movement, enlighteners, immunity, strategy, globalization, identity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Buyuk ma’rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg‘a surilgan g‘oyaviy-siyosiy, ijtimoiy ma’rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o‘rtasida bag‘rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko‘z qorachig‘iday asrashga doimo da’vat etib turadi” [1].

Ma’lumki, “Jadid” so‘zi “yangi”, “yangilik” ma’nolarini anglatadi. Shuning o‘zidanoq XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasida shakllangan yangi, ya’ni jadidchilik harakatining ilmiy ma’rifiy asosli, kuchli ijtimoiy, siyosiy va amaliy mohiyatga ega bo‘lgan harakat deyish mumkin. Turkiston jadidlari o‘z faoliyatlarida o‘lkada umuman yangi dunyoqarashni shakllantirish, xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yanada yuksaltirish, mahalliy xalqlarini ma’rifatli qilish, savodxonlik darajasini oshirish, maktablar ochib, boshqa usuldagi ta’limni joriy qilish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o‘qishga yuborish, yosh avlodni o‘qimishli qilish orqali yurt mustaqilligiga erishish, ta’lim, ijtimoiy tuzilma va diniy urf-odatlarini modernizatsiya qilish, ijtimoiy muammolarni bartaraf etish hamda jamiyatni taraqqiy ettirishga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surgan. Ular bu yo‘lda o‘zlaridan keyingi avlod taqdiri uchun jon-jahdlari bilan kurashdilar [3, 107-108].

Xo‘sh, jadidchilik harakatini o‘qitishning zamonaviy ta’limda qanday ahamiyati bor?

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida Turkiston jadidchilik harakati namoyandalari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy g‘oyalarni o‘rganish yosh avlodga yurt mustaqilligi, ozodlikni qadriga yetishda, ilm ma’rifat jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligini anglab olishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimiz ta’lim muassasalarining o‘quv adabiyotlariga kiritilgan Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining o‘lmas g‘oyalari o‘quvchi-talaba shaxsini mukammal kamol toptirishda, ularning dunyoqarashini shakllantirishda, yoshlarni siyosiy-madaniy hayotga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda, o‘zlashtirilgan bilimlarini yanada rivojlantirishda, ilmiy, o‘qimishli, ma’rifatli bo‘lib voyaga yetkazishda, faollashtirishda, zamonaviy fanlarni chuqur egallashda, sog‘lom va baquvvat farzandlarni tarbiyalashda, kundalik hayotdan ogoh bo‘lishda dolzarblik kasb etmoqda.

Jadidchilik harakati va uning mazmun-mohiyati bugungi kun uchun ham dolzarb va ahamiyatlidir. Ayniqsa, bugungi globallashtirish davrida ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan turli yoshdagi o‘quvchi-yoshlarning jadidlarning ma’naviy merosini chuqur o‘rganishi muhimdir. Chunki Turkiston ma’rifatparvarlari xalqni savodli, ma’rifatli qilish, kishilar dunyoqarashi va ruhiyatini tubdan o‘zgartirish, yoshlarga kasb-hunar, zamonaviy ilm-fan asoslarini chuqur o‘rgatish orqali jamiyatni taraqqiy ettirish, yurt ozodligi, millat taraqqiyoti yo‘lida sa’y-harakatlarni o‘z oldilariga vazifa qilib qo‘ygan edilar. Ularning bu yo‘ldagi ezgu sa’y-

harakatlari va g'oyalarini mamlakatimizdagi bugungi ta'lim tizimi bilan chambarchas ekanligini anglash mumkin.

Jahon intellektual merosi taraqqiyoti tarixida jadid ma'rifatparvarligining ijtimoiy-iqtisodiy, falsafiy g'oyalarini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan o'rganish yoshlar milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ularni axloqiy yuksaltirishda, turli xil yot g'oyalardan saqlashda, ular ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir [2].

Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining amalga oshirgan ishlari oliyjanob fazilatlarini mujassamlashtirilgan insonni tarbiyalashda, bugungi yosh avlodning intellektual salohiyati, dunyoqarashini yuksaltirishda, milliy-ma'naviy qiyofasini shakllantirishda, ularning bilim va savodxonligini oshirishda, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda, ularni turli xil yot g'oyalardan saqlashda, o'zligini anglashda, zamonaviylikka intilishda, mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishda, hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri anglashda, o'tmish merosimizdan samarali foydalana olishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun jadidchilikni o'qitish jarayonida mazkur harakatning mohiyatini chuqur anglash, shu orqali yosh avlodning bugungi hayotimizning qadriga yetishini, ma'rifatparvarlardan qolgan boy ma'naviy merosni o'qib-o'rganish, avaylab-asrash va kelgusi avlodga yetkazish, o'quvchi va talabalarning milliy ongini yanada o'stirish, o'z vatani va xalqiga muhabbat va sadoqat tuyg'usini mustahkamlash, axloqiy yuksaltirish, mas'uliyat hissini oshirish, ularni milliy g'urur va iftixor, vatanparvarlik, insoniylik, yuksak ma'naviyat kabi oliyjanob an'analar ruhida tarbiyalash, ularga bugungi davr talablari asosida ta'lim tarbiya berishimiz uchun jadid mutafakkirlarimizning merosini qay darajada kerakli ekanligini tushunib olishimiz lozimdir [3, 109].

So'nggi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlar jadidchilik harakati tarixini o'rganishda qator jihatlariga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

Agar o'tgan asr boshlarida xalqimiz hayoti va taqdiriga ega chiqmoqchi bo'lgan tashqi kuchlar qo'l bilan sanoqli va ularni ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan bo'lsa, bugun hayotning beistisno barcha sohalarini qamrab olgan xurujlarning sonini ham, kelayotgan manzilini ham, ortida qanday kuchlar va manfaatlar turganini ham bilish-aniqlash oson ish emas. Shunday ekan, bugungi ma'rifatchi-ziyolilar – olimlar, pedagoglar, ijodkorlar, din peshvolaridan bu masalalar ustida jiddiy o'ylash, ularning mohiyatini chuqur anglash va eng muhimi – millionlab yurtdoshlarimizga tushunarli til va uslublarda anglatish talab etiladi [2].

Q.Nazarovning fikricha, "Jadid g'oyasi va falsafasi, jadidchilik harakati va amaliyoti ana shunday jasoratli ziyolilar uchun nafaqat asosiy tayanch manbalardan biri, balki bugungi tafakkur yangilanishi jarayoni uchun muhim zaruriy qo'llanma, har birimiz uchun esa ibrat namunasi va ma'naviy mas'uliyat hissini mustahkamlash omili bo'lishi zarurligi davr talabiga aylandi.

Jadidlarning konseptual g'oyalari hozirgi o'zgarishlar amaliyotining ma'naviy darakchisi, bugungi kundagi strategiya va keng qamrovli islohotlarning genetik asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki ular siyosiy dasturlarida umuminsoniy xususiyatlarni tarannum etuvchi, erk va ozodlik, adolat va mustaqillik g'oyalarini olg'a suradi. Bu

esa jadidlarning mustaqilligimiz uchun g‘oyaviy asos bo‘la oladigan tashabbuslaridan darakdir” [4]. Bu esa Turkiston jadidlarining faoliyati, ularning boy ma‘naviy me‘rosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligini anglatadi.

Siyosiy tahlilchi K.Rabbimov “Jadidlarni nega o‘rganishimiz kerak?” mavzusidagi maqolasida jumladan shunday deydi: “Globallashgan dunyoda, o‘zliklar va tafakkurlar raqobati, to‘qnashuvi, oldingidek chegaraviy emas, global bo‘ladi. Tarixni bilish – milliy o‘zlikni o‘yg‘otish, milliy ishonchni parvarishlash vositasi hisoblanadi. Tarix nafaqat yutuqlar haqida, balki xatolar va fojialar haqida ham so‘zlaydi.

Bu bilan, tarix, “kim do‘st?”, “kim dushman?”, “kim bosqinchi?”, “kim mustaqilligimizdan manfaatdor?” degan savollarga eng xolis javob bera oladi. Bu savollarning javobi esa, bugungi propagandalar, geosiyosiy kurashlar, tafakkur manipulyatsiyalari davrida, juda zarur ma‘naviy ozuqa bo‘ladi.

Jadidlar – juda qiziq fenomen. Ular, meni nazarimda, ikki o‘t orasida qolishgan edi. Bir tomondan asrlar davomida shakllangan va har qanday modernizmga qarshi bo‘lgan konservatizm. Ikkinchi tomondan, imperialistik, kolonial modernizm edi.

Jadidlar, o‘zliklarimizni so‘ndirmasdan, uning asosida mo‘tadil va ma‘rifatparvar modernizmga erishmoqchi bo‘lishdi. Lekin, kolonializm ularning kuchli g‘oyasini naqadar jozibador ekanini anglab, ularni to‘liq qatog‘on qilishdi...

Bu davrni bilish – yaqin o‘tmishdagi eng katta jinoyatlar, fojialarni bilish, mustaqilligimiz naqadar ulug‘ va qimmatli ne‘mat ekanini anglatadi...” [7].

Bizning fikrimizcha, ta‘lim muassasalarida jadidchilik harakatini o‘qitilishini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilarni amaliyotga joriy qilishni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- tegishli o‘quv modullari dasturlarini qaytadan ko‘rib chiqish va takomillashtirish;

- axborot-resurs markazlarida xalqimizning tarixi va boy madaniyatiga oid adabiyotlar sonini ko‘paytirish;

- ta‘lim muassasalari o‘quv adabiyotlarida jadidchilik tarixiga ko‘proq soatlar ajratish; oliy ta‘lim muassasalarining tarix ixtisosligi bo‘lmagan yo‘nalishlari talabalar uchun o‘qitiladigan O‘zbekiston tarixi fanida jadidlar harakatiga oid mavzularni ko‘paytirish;

- oliy ta‘lim muassasalarining tarix yo‘nalishi talabalariga jadidchilik harakati tarixini maxsus fan sifatida o‘qitishni joriy qilish .

Turkiston ma‘rifatparvari o‘z zamonasining ilg‘or ziyolilari hisoblanib, yurt taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiya islohoti va madaniy yuksalish yo‘lida samarali xizmat qilganlar, ular o‘zlaridan keyingi avlod taqdiri uchun jon-jahdlari bilan kurashganlar. Jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ezgu ishlar bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash zarurki, bugungi kunda jadidchilik harakatini yanada chuqur o‘rganish va ularning ibratli hayot yo‘lini ta‘lim muassasalari o‘quvchi va talabalariga haqqoniy tarzda yetkazish dolzablik kasb etmoqda. Bu vazifa keng jamoatchilikning muhim vazifasiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga murojaati. "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" xalqaro konferensiya materiallari [to'plam] / mas'ul muharrir, professor Temur Xo'ja o'g'li. – Toshkent: 2024, 4-bet.
2. Alimov N. Jadidlar merosini o'rganish, anglash – ildizi baquvvat daraxtga aylanish imkonidir. <https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir>
3. Begimqulov Z. Ta'lim muassasalarida jadidchilikni o'qitilishining zarurati. "Pedagogik akmeologiya". Jurnal. 4 (21) 2025, B.107-110.
4. Nazarov Q. Jadid falsafasi. Yangi O'zbekiston gazetasi, 2024-yil 16-yanvar, № 11 (1072), 3-bet.
5. Rabbimov K. Jadidlarni nega o'rganishimiz kerak? <https://kun.uz/61979872>
6. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. Samarkand: SamDU.
7. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Ученые: University of Minho*, 18, 187-194.
8. Narzieva, N. N. (2024). Development of research competencies in the conditions of integrated education in students on the base of a competent approach. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(2), 16-21.
9. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
10. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
11. Нарзиева, Н. (2017). Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
12. Narzieva, N. N. (2017). Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach. *www.auris-verlag.de*.
13. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).

14. Narzieva, N. N. (2023). OLIY TA'LIM O 'QITUVCHILARINING INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O 'QITUVCHILARI MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. 2016 No. 6 (100/1), 100(66), 5-10.
15. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.
16. Ulugmurodova, G. F., Nurmanova, N. N. Z., & Musayeva, N. A. (2020). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATSION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, (29), 55-56.
17. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).
18. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.
19. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Х. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.